



## ARTICLE INFO

Received: 06<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 16<sup>th</sup> December 2022

Online: 16<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

*Atroponimiya, onomastika, etimologiya, international nomlar, sovetizmlar, zooantroponim, fitoantroponim.*

Shaxs nomlari va ularning etimologiyasi (kelib chiqishi) haqida ma'lumot beruvchi *antroponimiya* onomastikaning asosiy tarkibiy qismidir va bu sohani vujudga keltirish uchun diaxronik (tarixiy) va sinxronik (zamonaviy) jarayonlarning o'rnini beqiyos. Boisi antroponimiyaning lug'aviy boyligini tashkil etish uchun tarixan ro'y bergan shaxsni nomlashga xos udumlar, semantik yondashuvlar, xo'jalik va ijtimoiy tuzumning ta'siri asosiy unsur sifatida qabul qilinadi va zamonaviy motivlar asosida rivojlanib kelinadi. Qolaversa bu bosqichlar xar bir xalq lingvistikasida turlicha kulturologik, sotsiologik va etnografik o'ziga xoslikni namoyon etadi. Shuning uchun ham tilshunoslikda bu bo'lim turli tizimli tillarda azaliy tahlil qilinuvchi muhokamaga boy soha sifatida tasnif etiladi. Xususan, O'zbek tilshunosligida atroponimik an'analar tuzilishi, rivojlanishi hamda jamiyatda amalda qo'llanilishiga urg'u qaratiladi va bu bosqichda diaxron jarayonning o'rnini muhimligi e'tirof etiladi.

## O'ZBEK ANTROPONIMIYASI DIAKRON TADQIQI

<sup>1</sup>Abdurahimova Durdona Tavakkaljon qizi

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistranti,

<sup>2</sup>Mo'minov Siddiqjon Mirsobirovich

Filologiya fanlari doktori, professor.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7445317>

## ABSTRACT

*Maqolada antroponimlar onomastik birlik sifatida diaxron tadqiq etilgan va o'zbek xalqlarida bolalarga ism berishning tarixiy motivlari ishonchli dalillar asosida yoritib berilgan.*

O'zbek antroponimiyasi rivojiga hissa qo'shgan diaxron unsurlarni o'rganishda ushbu maqolamizga bir qator tilshunos-olimlarning ilmiy-nazariy izlanishlari metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Garchand o'zbek antroponimiyasini tarixiy ilmiy metodlar asosida o'rganish o'tgan asrning 60-yillarida yuzaga kelgan bo'lsada, ungacha bolaga ism qo'yishga bag'ishlangan ba'zi ilmiy-ommabop maqolalar nashr etilgan. Xususan, O'zbek ismlarining ma'nolarini ommabop tarzda izohlagan dastlabki risolani Ya. Menajiev va X. Azamatovlar yaratishgan. Risolada ismlar ma'nosini tushunish, ism ma'nosining asosi bo'lgan motivlar va boshqalar yuzasidan jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yilgan. Ushbu risola keyinchalik E. Begmatov va D. Abdurahmonovlar tomonidan qayta ishlanib, nashr qilindi. Yangi nashrda ismlarning nominativ vazifasi, ism ma'nosi tushunchasi, ism berishda amal qilinadigan udum va odatlar, ishonch va e'tiqodlarga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. E. Begmatov va D. Abdurahmonovlar *diniy* ma'noli nomlarning bolaga berilish sabablari (Xudoyberdi, Tangriberdi,



Xudoyor, Xudoynazar, Ollonazar, Qudratulla), ism berishda amal qilinuvchi *totemistik va animistik e'tiqodlar* (Bo'riboy, Bo'ritosh, Bo'riniso, Boybo'ri, Itolmas), *so'zning (ismning) sehrli kuchiga ishonish* bilan bog'liq qarashlar (Ortiqboy, Oltiboy, Ziyodulla, Nishonboy, Xolboy, Xol-niso, Norboy, Norxol), *zooantroponim* va *fitoantroponimlarning* paydo bo'lish sabablari (Norqo'zi, Oloqo'zi, To'qiliboy, Sarkaboy, Qo'chqor, Takaboy va boshqalar), chaqaloqni *bevaqt nobud bo'lishdan, kasallikdan himoya qilish* maqsadida beriladigan ismlarning etnografik asoslari (To'xta, O'lmas, Tursun, Temir, Toshboy, Toshtemir va boshqalar) haqida qimmatli mulohazalar bayon qilingan. O'Nosirov esa "O'zbek tilidagi kishi nomlari haqida ba'zi mulohazalar" nomli maqolasida o'rganilgan hududda ism berish udumlari bilan aloqador ba'zi nomlarga keng to'xtalgan. Masalan, chaqaloq dunyoga kelgach, uning *badanidagi belgilarga ishora* qiluvchi Qoriq, Qo'shboy, Qo'shboq, Qo'shoq, Oltiboy ismlarining; *go'dakning yuzi, ko'zi va sochiga xos xususiyatiga* ko'ra qo'yiluvchi Ko'kiboy, Sariboy, Qoraboy; agar chaqaloq tug'ilgandan to *yetti kunga qadar ko'zi ochilmasa*, unga Ochil, Ochiloy, Ochilbek, Ochildi kabi nomlar berilishining; ba'zi ismlar chaqaloqning *tug'ilgan vaqtiga ishora qilishi* Chorshanboy, Juma, Jumaboy, Payshanba, Bozor, bola biror *voqea, tadbir kuni* tavallud topsa Haydar (shanba kuni sotish uchun bozorga mol haydashgan - mol haydar kuni) va boshqalar haqida muhim ma'lumotlarni keltirgan. Muallif Barot, Ramazon, Asad, Rajab, Muharram, Safar ismlari chaqaloq *tug'ilgan oy*; Nizom, Sobir, Bahor, Gulbahor ismlari bola tug'ilgan *mavsum*; Bayram, Hayit, Bayramali, Hayitgul, Hayitmurod, Qurbon, Qurbonboy ismlari *bayram va marosim* kunlari; Mehmon, Mehmonali, Momoxol, Boboqul, Bobonazar, Otabek, Yo'ldosh, Yo'lchi nomlari *go'dakning o'z uyida tug'ilmaganligi*; Qirq, Oltmish, Sakson, To'qson ismlari chaqaloq dunyoga

kelganda *otasining yoshi* nechada bo'lgani; Chori, Panji ismlari nom egasining oiladagi *nechanchi bola* ekani; To'xta, O'g'iloy, O'ljon, Adash, Maqsad, Qarshi, Qarshigul kabilar *o'gil yoki qiz ko'rish orzusi* bilan bog'liqligi; Yodgor ismi chaqaloqning *otasiz yoki onasiz* qolgani; Suyun, Suyundug, Quvonchiq, Xursand ismlari ota-onalarning shodligi, *emotsional holatini* bildirgan.[ 2, 6-14]

Qolaversa, ma'lumki, o'zbek antroponimiyasining lug'aviy boyligi ikki katta qatlamga bo'linadi: o'z qatlam ismlar va o'zlashma qatlam ismlar. Bu qatlamlar maxsus tadqiqotlarni talab qilar edi. Mana shuni hisobga olgan holda G.Sattorov 1990 yilda "O'zbek ismlarining turkiy qatlami" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Tadqiqotda o'zbek ismlarining turkiy qatlami ism uchun asos bo'lgan motivlarga ko'ra tarixan tasniflangan, so'ngra o'zbekcha ismlar *ism-bag'ishlovlar, tavsifiy ismlar, ism-istaklarga* ajratilgan holda tavsiflangan.

Tadqiqotchi S.Rahimov ham 1998 yilda "Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Tadqiqotda ba'zi tarixiy va mifologik ismlarning ma'no va motivatsiyasiga oid fikrlar mavjud. Masalan, Hubbi, Hubbiqul, O'g'uz, Qayumar, Jamshid, Zol, Kaykubod, Kaykovus, Rustam va boshqalar. Shuningdek, dissertatsiyada islom dini ta'sirida udum bo'lgan arabcha, qadimiy yahudiycha ismlarning, turli marosim va urf-odatlar bilan bogliq nomlarning (Navro'z, Hayitboy, Ro'ziboy va boshq), yil, oy, hafta nomlariga nisbat berilgan ismlarning asosini hayvon va qushlar nomi tashkil etuvchi nomlarning qo'yilish sabablari izohlangan. Dissertant Xorazm vohasi aholisi ismlari uchun xos bo'lgan mintaqaviy ismlar va ism komponentlarini belgilashga muvassar bo'lgan. Uning yozishicha, xorazmcha ismlar tarkibida *niyoz, juma, anna, odina, poshsha, shoh, rajab, ro'zi, qurvon, quron, hayit, ota, bobo, esh, meng* komponentlarining kelishi



xarakterlidir. Yana bir mashxur tilshunos A.G'afurovning yirik tadqiqoti "Nom va tarix" deb ataladi va unda turkiy xalqlarda ism qo'yish odatlariga oid e'tiborli ma'lumotlar kiritilgan, ismlar tarixi, etimologiyasi, ma'nosi, berilish motivlari jihatidan ilmiy-ommabop uslubda izoh berilgan. A.G'afurovning yozishicha, o'tmishda kishilar ismni shaxsning joni bilan bog'liq deb hisoblashgan. Shu sababli ism orqali shaxsning taqdiri, hayotini belgilash, o'zgartirish mumkin deb bilishgan.

Ko'rinib turibdiki, o'zbek antroponimiyasi rivojining tarixiy motivlari bir qancha lingvistlar tomonidan o'rganilgan va asosli mulohazalar bilan tahlil etilgan. Yosh tadqiqotchi sifatida egallangan bilimlarim asnosida bayon etamanki, o'zbek antroponimiyasi diaxron bosqichi, mening nazimda, olti unsurdan tashkil topadi.

Etnografik irimlar -menimcha, bolaga ism berishda eng ommalashgan motiv. Chunki chaqaloq dunyoga kelishi bilanoq unga o'sha davr irimlari, e'tiqodlariga suyangan holda darxol nom berilgan va bu jarayonda bu motiv hatto diniy unsurlardan ham yuqori o'rinda turgan. Masalan, o'zbek antroponimiyasining tarixiy qatlamlariga nazar solar ekanmiz, *Ochiloy, Ochilbek* (bola tug'ilgandan keyin 7 kungacha ko'zini ochmasa), *Oltmishvoy, Yetmish* (bola tug'ilganda otaning yoshi, shu yoshga yetib yashasin degan maqsadda), *O'g'iloy, To'xtaxon* (o'g'il ko'rish niyatida), *To'xta, O'lmas, Tursun* (chaqaloqni erta nobud bo'lishidan saqlovchi) singari ismlar urfda bo'lganiga guvoh bo'lamiz.

Qiyofa (tasvirlovchi) - shaxs nomlashda navbatdagi tarixiy an'anaviy usul. Bunda asosan bolaning badandagi belgisi (*Anora, Qo'shboy, Oltiboy*), yuz, ko'zi (*Sariboy, Qorajon*) tasvirlovchi manba sifatida talqin etiladi. Buni biz 1936-yilda taniqli o'zbek yozuvchisi va shoiri G'afur G'ulom qalamiga mansub "Shum bola" asari bosh qahramonlari Qoravoy (shum bola) va Sariboylar timsolida ham guvoh bo'lishimiz mumkin.

Ijtimoiy turmush-o'zbek antroponimiyasida semantikani deyarli chetga surib, ism berishning tarixiy ommabop unsuriga aylangan motiv. Boisi diaxron bosqichda bolaga ism berilar ekan, ota-onalar apellyativga emas shunchaki kundalik turmush tarzlariga tegishli bo'lgan mehnat qurollari, buyumlari, xo'jalik hayvonlar, o'simliklarga nisbat berishgan, shaxsga xos ma'naviy xususiyatlari esa umuman e'tiborga olinmagan (*Boltaboy, Teshavoy, Ketmonali, O'choq, Ketmonqul; Norqo'zi, Takaboy, Qo'chqor; Bodomgul, Sabzigul, Chamangul*) Geografik muhit- aksariyat hollarda chaqaloq tug'ilgan manzil, makonga tayanib ham ism berilgan. Masalan, o'z uyida tug'ilmasa- *Mexmonali, Otabek, Yo'ldosh, Yo'lchi*, bozorda tug'lsa - *Bozorboy*, to'yda- *To'ychiboy*. Qolaversa, *Dalaxon, O'rmon, Qo'qonboy, Yaylov, Chimboy, Dashboy, Chaman, Lolazor, Bo'ston, Yozloq, Chust, Denov* singari toponimlar ham shaxs nomlanishiga asos bolgan. Bunday ismlar seriyasi ko'pni tashkil etmasada, diaxron antroponimik o'ziga xoslikni ifoda etadi.

Vaqt ga asoslangan ismlar ham antroponimiya lug'aviy boyligini tarixan rivojlantirgan. Chunki bola tug'ilgan vaqtga nisbat berilgan ismlar shu darajada ko'pki, ularni turli guruhlarga bo'lish mumkin. Jumladan,

➤ chaqaloq tug'ilgan kun : *Juma, Payshanba*

➤ chaqaloq tug'ilgan oy: *Barot, Rajab*

➤ chaqaloq tug'ilgan mavsum: *Bahoroy, Gulbahor, Navbahor*

➤ chaqaloq tug'ilgan paytdagi bayram: *Xayitmurod, Ramazon*

O'zlashma qatlam - sho'rolar istilosi oqibatida rus tilidan va u orqali chet tillar onomastikasidan kirib kelgan ismlarni o'zbek qizlari va o'gillariga berish udum bo'lgan (*Klara, Svetlana, Marat, Telman* va boshqalar). Bunday ismlarni "Internatsional nomlar" ("baynalmilal ismlar") deb maqtalardi. Shuningdek, *Kolxozbek, Sovxozbek, Saylovboy, Maya* kabi



ismlar "sovetizmlar" o'zbek onomastikasining yangi qatlami sifatida ma'qullangan.

Ilmiy izlanishlarim asosida ma'lum bo'ldiki, o'zbek atroponimiyasi diaxron tahlili turli ilmiy qarashlarga boy bo'lib har bir tilshunos o'z tadqiqot obyektiga ko'ra tarixiy rivojlanish motivlarini bayon etgan. Shuni ham ta'kidlash joizki, bolaga ism tanlashning diaxron bosqichi antroponimik tizimning lug'aviy lisoniy jihatdan original

xususiyatlariga tayanib emas, balki ism berishga xos bo'lgan universal an'analarga asoslanib tadqiq etilgan. Shu bois ham, bolani nomlash odatlari va kishi nomlarining paydo bo'lishi, rivoji dastlab xalqning xo'jalik sharoiti, shunga bog'liq holda ma'noviy turmushi, jumladan, etnografik qarashlari, shuningdek, geografik muhiti, tasvirlovchi belgi-xususiyatlari bilan yaqindan bog'liq tarixiy hodisa hisoblanadi.

## References:

1. E.A.Begmatov. O'zbek tili antroponimikasi. Toshkent: Fan. 2013
2. Menajiyev. Y., Azamatov.X., Abdurahmonov.D.,Begmatov. E. Ismingizning ma'nosi nima? Toshkent: Fan.
3. N o s i r o v U. Uzbek tilidagi kishi nomlari haqida badiiv mulohazalar // Ilmiy asarlar. Qarshi - Toshkent
4. Sattorov G. H. O'zbek ismlarining turkiy qatlami: Filol. fan. nome.... dis. avtoref Toshkent
5. Rahimov S. Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi: Filol. fan. nom. ... dis. Toshkent, 1998
6. Azimjon Latifjon oqli Melikuziev. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126–128. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/UAH57>
7. Khakimov, M. K., & ugli Melikuziev, A. L. (2022). The History of Paralinguistic Researches. *International Journal of Culture and Modernity*, 13, 90-95.
8. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.